

YoShLAR YeTAKChILARIDAN YaNGI G'OYaLAR



YoShLAR YeTAKChILARIDAN YaNGI G'OYaLAR

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan mahalallarga yoshlar vakili sifatida tayinlangan yoshlar yetakchilari haqiqatan ham yoshlarni o'ziga ergashtira oladigan, shaxsiy fazilatlar bilan namuna ko'rsatadigan, fidoyi, sadoqatli va vatanparvar yoshlar bo'lishi lozim.

Yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishdek ishlarni amalga oshirish yoshlar yetakchisi zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

Tumanimizning Saribozorcha mahallasiga yoshlar yetakchisi vazifasiga tayinlangan Muhib Azamjonov tashabbusi bilan mahallada hudud yoshlari ishtirokida "Gulxan atrofida so'hbat" tadbiri tashkil etilib, tadbirda ishtirok etgan yosh san'atkorlar mahoratidan barcha mahalla yoshlari bahramand bo'ldilar.

Albatta, bu kabi tadbirlarni tashkil etish yoshlar uchun foydadan xoli emas. Agar mana shunday yangi g'oya va loyihalarni barcha hududlardagi yoshlar yetakchilari amalga tatbiq etishsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi va bunday tadbirlar yoshlarni birlashtiruvchi kuchga ham egadir.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-02-02 16:54:48